



## KOMPYUTER O'YINLARI VA ULARNING FOYDALI VA ZARARLI JIHATLARI

*Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchisi,*

*Jo'rayev Samandar Jamoliddin o'g'li*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Tarix fakulteti talabasi*

*Safarov Sharofiddin Xolbek o'g'li*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Tarix fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kompyuter o'yinlari va ularning foydali, zararli jihatlari va yoshlar ongiga ta'siri haqida fikr yuritdik.

**Kalit so'zlar:** *Elektron o'yinlar, Onlayn matnlar, OAV, Ijtimoiy media, tarmoq.*

### ***Kirish***

Kompyuter texnologiyalarining ilk kashfiyotchilari 1940-yilda oddiy shaxmat o'yinini yaratganlar. Bugungi kompyuter o'yinlarining ilk ko'rinishi haqida esa 1950-yillardan gapirila boshlangan. 1980-yillarga kelib o'yin konsollari shaxsiy kompyuterga nisbatan ommaviyroq bo'lib qoldi. Shaxsiy kompyuter quvvati izchillik bilan oshib bordi va 1990-yil larga kelib, o'yin konsol lari kompyuter o'yinlarini ma'lum darajada siqib chiqardi. Uchinchi ming yillik boshida esa eski o'yin konsollari modernizatsiyalashdi va yangi avlod qurilmalari ularga jiddiy o'yin maqomini qaytardi. 2010-yilga kelib, kompyuter va konsol o'yinlari bozorda raqobatchiga aylandi.

### ***Asosiy qism***

#### ***Onlayn va video o'yinlar***



***Elektron o‘yinlar*** — kompyuter, konsol yoki mobil qurilmalar, interfaol televideniye yoki Internet vositasida o‘ynaladigan o‘yin lardir. Deyarli hamma umrida bir marotaba bo‘lsa ham elektron o‘yinni o‘ynagan. Uyali telefon va interfaol tartibdagi o‘yinlar esa uni oddiy mashg‘ulotga aylantirib qo‘ymoqda.

O‘yin konsollarining rivojlanishi hozir ham davom etmoqda. Elektron o‘yinlar o‘zaro bog‘liq harakatga asoslangan bo‘ladi: o‘yinchining harakati o‘yinning keyingi jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois o‘yinga mukkasidan ketish, aytaylik, kitob o‘qishga kirishib ketishdan osonroq va tezroq kechadi.

Ammo ayrim o‘yinchi lar meyorni unutgan holda o‘yinga o‘ta berilib ketadi, bu esa o‘yinga tobelikni keltirib chiqaradi. Bunday insonlarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish zarur. O‘yinchilar uchun har doim ijtimoiy jihat muhim bo‘lgan: ular aksariyat hollarda birga o‘ynash uchun oila a’zolari yoki do‘stlarini taklif etadi.

Bugungi kunda ko‘plab onlayn o‘yinlar bir necha kishi ishtirokida o‘ynaladi. Internetda o‘yin o‘ynash uchun sherikni istalgan paytda, xatto kechasi ham topish mumkin. Ko‘p kishilik o‘yinlarbir vaqtning o‘zida ko‘plab ishtirokchining o‘yindaqatnashishiga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, aksariyat onlayn o‘yin larda o‘yinchi lar o‘zaro muloqot qilishi hamda o‘yin strategiyasini muhokama etib borishi uchun ham imkoniyat mavjud bo‘ladi. Ko‘ngilochar o‘yinlardan tashqari “jiddiy o‘yinlar” ham bor. Ular aniq ta’lim yo‘nalishiga egaligi bois, uyda yoki mактабда aniq ko‘nikmalarni singdirishni maqsad qiladi. Maklonni qabul qilish, deduksiya, til va kooperativ (hamkorlikda harakat qilish) ko‘nikmalari o‘yin davomida yaxshilanib borishi mumkin. Ko‘plab strategik o‘yinlar mantiqiy masalalarning qiyinligi yuzasidan shaxmat bilan tenglasha oladi: xuddi shaxmatda bo‘lgani kabi bunday o‘yin larda ham bir necha yurishni oldindan o‘ylab mulohaza qilishga to‘g‘ri keladi. O‘yinlar shuningdek, sabr-bardoshga o‘rgatishi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi mumkin. Chunki o‘yin davomida qiyin bosqichlardan sakrab o‘tib ketish mumkin emas. O‘tolmadingmi, har safar yana boshidan boshlash zarur.



Shu ma'noda o'yinlarni ta'limning ko'makchisi deyish mumkin, chunki ular o'yinchini harakat qilishga, fikrlashga va muammolarni hal etishga o'rgatadi. Elektron o'yinlar yordamida yosh lar mavzuni shunchaki yodlab olmaydi, balki ta'lim harakat va tajriba vositasida amalga oshiriladi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi Ekspert komissiyasining 2017 yil 25 yanvardagi 1-son bayonnomasi bilan «O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, tayyorlash va tarqatish tavsiya etilmaydigan kompyuter o'yinlari ro'yxati» tasdiqlangan.

### ***O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, tayyorlash va tarqatish***

- 1. Postal 2
- 2. Phantasmagoria Фантасмагория
- 3. Grand Theft Auto: San Andreas
- 4. Carmageddon
- 5. Mass effect
- 6. Dead space
- 7. Naughty bear
- 8. Mafia II
- 9. Call of duty: Black ops
- 10. Kane and Leanch 2: Dog days
- 11. Castlevania: Lords of Shadow
- 12. Assasin's Creed: Brotherhood
- 13. Fallout: New Vegas
- 14. Dead Rising
- 15. Manhunt
- 16. Mortal Kombat X
- 17. Manhunt II
- 18. Left 4 Dead 1, 2, 3
- 19. Doom 3, 4
- 20. Hitman
- 21. Resident evil 4
- 22. SOMA
- 23. Silent Hill
- 24. Until down
- 25. Hatred
- 26. Dying light
- 27. Dead by Daylight
- 28. Prototype
- 29. The Punisher
- 30. Bone Town
- 31. Lula 3d
- 32. 3D Sex Villa 2
- 33. The Sims 3, 4
- 34. Shadow Warrior

### ***Onlayn matnlar***

Aksariyat hollarda Internetda e'lon qilingunga qadar matnlarning aniqligi tekshirilmaydi. Foydalanuvchi lar tomonidan tayyorlanadigan kontent parchalari, xolis bo'limgan yoki noaniq axborotni o'z ichiga olishi mumkin. Forum va bloglarning foydali jihatlarini inkor etmagan holda aytish joizki, ular shuningdek,



amalda tavsiyalari zararli bo‘lgan «maslahatchilar» bilan ham muloqotga kirishishga sabab bo‘lishi mumkin. Internet foydalanuvchi-lari unda berilgan har qanday axborotga ishonish qanchalik xavfli ekanini bilishi kerak. Shunday saytlar borki, ularning mazmuni foydalanuvchi larni o‘ziga o‘zi zarar yetkazishga undaydi, masalan, o‘zjoniga qasd qilishni, anoreksiya yoki turli sekta-larni targ‘ib qiluvchi saytlar. Internetda axborotlarni e’lon qilish tartibi soddalashtirilgani sayin zararli kontent ta’siriga tushib qolish ehtimoli ortib bormokda. Bolalar va yoshlar bunday saytlarda e’lon qilingan ko‘rsatma va axborotlar o‘zida qanday xatarlar saqlashini to‘g‘ri baholash salohiyatiga ega bo‘lmaydi.

Tarmoqdagi axborotni tahlil qilish muammosi, Internetda material e’lon qilishni soddalashtirilishining ikkinchi tomonidir. Aytaylik, biror bir mashhur insonning ashaddiy muxlisi bo‘lgan maktab o‘quvchisi yaratgan veb-saytni o‘sha “yulduz”ning rasmiy sayti, deb noto‘g‘ri qabul qilish mumkin. Bundan tashqari, ba’zida reklamani haqiqiy axborotdan ajratib olish ham murakkablashib bormokda. Shaxsiy blogdagi axborot mahalliy gazeta yoki muayyan hamjamiyatning veb-saytidagi axborotdan farq qilishi mumkin. Agar muallif o‘zi yozayotgan soha yoki mavzuning eksperti bo‘lsa, bunday axborotni ishonchli, deb hisob lasa bo‘ladi. Shaxsiy blog-larda ayrim qarashlarga ortiqcha urg‘u berib yuboriladi, bu narsa atayin yoki bilmagan holda ham amalga oshiriladi. Mahoratlari muallif o‘zi yozayotgan matn lar betaraf bo‘lishi uchun harakat qiladi. Shu bois matnning muallifi kim ekanligini bilish ham juda muhim. Matn hatto mutaxassis tomonidan tayyorlangan bo‘lsa ham, albatta uni boshqa manbalar bilan qiyoslash, uning mazmuni qanchalik mos kelishiga e’tibor qaratish zarur.

Agar veb-sayt mukammal ishlangan, foydalanuvchi uchun qulay bo‘lsa, to‘g‘ri til qo‘llanilsa, demak, uning yaratuvchilarini o‘z ishiga jiddiy yondashadi deyish mumkin. Aksincha, saytda tartib bo‘lmasa, tili pala-partish bo‘lsa, dalil lar chalg‘itsa, bunday saytning mazmuniga ishonmagan ma’qul. Tijorat kompaniyalarining veb-saytlari savdo hajmini oshirish maqsadida yaratiladi.



Ularning ba’zilari faqat reklama va o‘z-o‘zini maqtashdan iborat bo‘lgan ma’lumotni taqdim etadi. Lekin foydali ma’lumotlar jamlanganlari ham uchrab turadi. Ammo gap tijorat haqida borgani bois, bu o‘rinda dalil va raqamlar ham marketing kompaniyasining bir qismi bo‘lib hisoblanadi.

### **Xalqaro kelishuvlar va bolalar huquqlari bilan bog‘liq vositalar**

Yo‘lda harakat xavfsizligini ta’minalash uchun ma’lum qoidalarga amal qilish lozim bo‘lgani kabi ommaviy axborot vositalari uchun ham yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlari vaziyatlarni oldini olish uchun rioya etilishi lozim bo‘lgan umumiyligi qoidalari zarur. Medialar uchun ham qoidalari qabul qilinishi kerak, masalan, nima haqda gapirish mumkin yoki mumkin emasligi va mazkur qoidalarning buzilishi qanday oqibatlarga olib kelishi to‘g‘risida va hokazo. Matbuot ishlari va jurnalistika odob-axloq meyorlari bo‘yicha birinchi tavsiyalar Birinchi Juhon Urushidan so‘ng shakllana boshladi. Bugun deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida mazkur yo‘nalishda muvofiq organ va standartlar ta’sis etilgan. Ularning aksariyati quyidagi tamoyillarga amal qiladi: – *fikrni ifodalash va sharhlashda erkinlik*;

- irqi, jinsi, millati, diniy qarashlari, ijtimoiy kelib chiqishi, kasbi, jismoniy imkoniyatlari va boshqa har qanday shaxsiy sifatlaridan qat’iy nazar tenglik;
- axborotni to‘plash va bayon etishda faqat halol usullardan foydalanish;
- axborot manbalari va foydalanuvchilariga hurmat va shaxsiy hayotga daxlsizlik;
- har qanday tashqi ta’sirni rad etish va pora olmaslik.

Axloqiy meyor lar turli madaniyat lar doirasida va turli muddatlarda o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham turli madaniyatlarda kommunikatsiya qay tarzda amalga oshirilishi xususida bir yoqlama xulosa chiqarish mumkin emas. OAV auditoriyasi turli madaniyatlarga mansub insonlar hisobiga kengayganida muammolar yuzaga keladi. Bunday holatda jurnalist turli auditoriyaa’zo larining qadriyatlari o‘rtasidagi farqni inobatga olishi zarur.



OAVni boshqarishning ikkita darajasini ajratish mumkin: qonunchilik va jurnalist odob-axloqi. Ularning o'rtasidagi asosiy farq meyorva qoidalargaamal qilinishining ta'minlanishidadir. O'z navbatida, jurnalist odob-axloqi mohiyatiga ko'ra tavsiyaviy mazmunga ega bo'lib, majburiy emasdir.

**Xulosa.** Digitallashuv va ommaviy faoliyat yuritish imkoniyatining kengayishi qonun qabul qiluvchilar uchun yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Virtual dunyoda qonunchilikka rioya qilinishini ta'minlash og'ir. Onlayn medialarning foydalanuvchilari undanda ko'proq muammo lar keltirib chiqarmoqda, chunki u larning aksariyati Internetda faoliyat yuritishning axloqiy meyorlaridan bexabardir. Mazkur odob-axloq meyorlarining mohiyatini tushunish, shuningdek, foydalanuvchilarning medialarga oid huquqini bilishi media va axborot savodxonligining tarkibiy komponentlarini tashkil etadi.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida aytilishicha: «Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqiga ega; ushbu huquq o'z e'tiqodiga to'siqsiz tarzda sodiq bo'lish hamda axborot va g'oyalarni har qanday vositalar bilan har qanday davlat chegaralaridan qat'iy nazar izlash, olish va tarqatish erkinligini o'zida mujassam etadi».

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. ABDURAZZOQOV, I. (2024). vUMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *Acta NUUz*, 1(1.3. 1), 61-65.
2. Rustamovich, A. I. (2024). INTERACTIVE METHODS OF COMPUTER SCIENCE USED IN FOREIGN COUNTRIES, NEW METHODS AND TOOLS OF TEACHING WERE DISCUSSED. *Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 2(5), 175-180.
3. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O 'QITISH USULLARI. *World scientific research journal*, 25(1), 86-90.



4. Shuxratovich, E. U., & Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA “BULUTLI TEXNOLOGIYALAR” ORQALI O'QITISH (XORIJIY DAVLATLAR MISOLIDA). *World scientific research journal*, 25(1), 79-85.
5. Rustamovich, A. I. (2022). FRANSIYA VA AVSTRALIYA DAVLATLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING RIVOJLANISHI, O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. *World scientific research journal*, 8(1), 123-126.
6. Rustamovich, A. I. (2022). RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYASI FANINING O 'RNI. *PEDAGOGS Jurnali*, 20(1), 58-61.
7. Abdurazzoqov, I. R. (2023). XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA INFORMATIKA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN TEXNOLOGIYALAR. *SCHOLAR*, 1(28), 323-328.
8. Yuldashev, U., Abdurazzokov, I., & Tursoatov, B. (2022). EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES. *Scientific Collection «InterConf»*, (107), 104-108.
9. Okboyevich, S. X., & Rustamovich, A. I. (2024). ZAMONAVIY KOMPYUTER GRAFIKASI VA GRAFIK MUHARIRLARI HAQIDA TUSHUNCHA. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 45(10), 29-32.
10. Rustamovich, A. I., Bahrom Yo'dosh o'g, B., & Ibodullo o'g, N. J. R. (2024). JAMIYATNI AXBOROTLASHTIRISHNI TA'LIM TIZIMIDAGI